

**DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT QURILISHINING
RIVOJLANISH TRANSFORMATSIYASI**

“ALFRAGANUS UNIVERSITY”

nodavlat oliy ta'lim tashkiloti,

Saparov Berdiyar

Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti,

falsafa fanlari doktori (PhD),

Annotatsiya: *Ushbu maqolada insoniyat taraqqiyotining dastlabki termachilik davrida odamlararo munosabatlarda tenglik ta'minlangan, mamlakat hududida barcha ishlab chiqarish jarayonidagi tengsizlik odamlarning o'zaro munosabatlarida asta sekinlik bilan namoyon bo'lganligi ochib berilgan. Qolaversa, davlatning qadimdagi munosabatlarining hududiy taqsimlanishi va davlatning shakllanishiga ta'siri tahlil qilingan. Shu bilan birga, davlatlar boshqaruv usuli, moddiy ishlab chiqarish jarayoni, aholining o'zaro munosabatlari bilan bir-biridan farqlanishi bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *suveren davlat, demokrati davlat qurish, siyosiy tizim, mustaqillik va milliy tiklanish, «saylovchilar irodasi», «ozodlik», ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar.*

Demak, davlat insoniy munosabatlar va aloqalar zaruratidan kelib chiqadigan ijtimoiy hodisadir. Muayyan hududlarda odamlarning ijtimoiylashuv jarayonlari va ularni birlashtiruvchi mexanizmlar davlatni tashkil qiladi. Tashkiliy jihatdan davlat yuqorida turadi va inson huquqlarini ta'minlovchi vosita sifatida ijtimoiy maydonga chiqadi. Shu ma'noda u o'z xalqi uchun tashkiliy institutdir.

Davlat boshqaruvi siyosiy tizim bo'lib, unda rivojlangan ijtimoiy munosabatlar, etnik va ijtimoiy tabaqalanish muayyan ma'noda kuchayadi. Bunda davlat rahbarining siyosiy hushyorligi, vatanparvarligi, jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ya olish qobiliyati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Davlat boshqaruvida fuqarolarning qonunlarni bilishi va unga rioya qilishiga

erishish davlat siyosiy tizimning bosh elementi hisoblanadi. Xususan, davlat jamiyatning muhim ijtimoiy-siyosiy instituti bo'lib, muayyan hududda unga oliy hokimiyat vakolatlari beriladi. Bu vakolatlardan davlat odamlar, ularning guruhlar va birlashmalari xulq-atvorini boshqarish uchun foydalanadi. Hokimiyat – muayyan sub'ekt (hokimiyat boshlig'i)ning o'z hukmi ostidagi fuqarolarga buyruqlar berish, ularning bajarilishi ustidan nazorat olib borish va ularni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarga nisbatan sanksiyalar qo'llash imkoniyati sifatida namoyon bo'ladi.

Suverenitet o'z mamlakati hududida oliy hokimiyatga to'liq egalik qilish va tashqi siyosatda mustaqillikni o'zida namoyon etadi. Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 24-martda suveren davlat sifatida e'lon qilinishi mustaqillikka erishish yo'lidagi dadil qadam edi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Demokratik huquqiy davlatda hokimiyat chiqargan qonunlar va uning vakolatlari amal qilinishiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi, bunda aholi uchun majburiy sanalgan qonunlar va normalar qabul qilinishi ularning siyosiy madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat A.Qodirov yozishicha: “Demokratik jamiyat qurish maqsadlari esa ko'p qirrali jarayon bo'lib, ko'pgina muammolarni o'z ichiga oladi. Demokratik jamiyat barpo etish, demokratiyaning qoidalari, prinsiplari, tamoyillariga tayanish bilan bir qatorda har bir mamlakat va xalqning o'ziga xos milliy-ma'naviy xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi”[1]. Shu bois, demokratik huquqiy davlatda aholi manfaatlarini himoya qiluvchi va unga xizmat qiladigan xodimlar, davlat organlari va mansabdor shaxslar demokratik jamiyatning asosiy bo'g'inlarini tashkil etadi. Tahlilimizcha, J.Tulenov o'zining «Mustaqillik va milliy tiklanish»[2] kitobida demokratik huquqiy davlat qurilishining bir qator omillari va mezonlarini tahlil qilganligini aytish mumkin.

Davlat boshqaruvi monarxiya va respublika shakllarida faoliyat olib boradi. Monarxiyaning asosiy belgilari hokimiyatning bir shaxsga qarashli bo'lishi va davlat boshlig'iga hokimiyatning meros bo'lib o'tishi bilan belgilanadi. Hozirgi davrda qator Yevropa davlatlari, xususan, Angliya, Belgiya, Shvetsiya, Niderlandiya kabi davlatlar monarxiya boshqaruviga asoslanadi. Monarxiya boshqaruvi amal

qilgan davlatlarda davlat boshqaruvining asosiy vakolatlari bosh vazirga tegishli bo'ladi. Respublikaning asosiy xususiyati shundan iboratki, unda hokimiyat manbai xalq hisoblanadi, davlatning oliy organlarini xalq saylaydi. "BMT ma'lumotlariga ko'ra 1995 yilgacha unga a'zo bo'lgan 186 davlatdan 140 tasida Prezident lavozimi mavjud bo'lib, ularning aksariyati prezidentlik respublikasidir. Prezidentlik respublikasining parlamentar respublikasidan farqi shuki, prezident xalq tomonidan saylanib, davlatning va ijroiya hokimiyatining boshlig'i hisoblanadi, hukumat Prezident tomonidan tuziladi va unga hisobot beriladi. Parlamentar respublikada esa, parlament, ya'ni oliy vakillik, qonun chiqaruvchi idora Prezidentni va hukumat tarkibini saylaydi va ularni o'ziga itoat ettiradi"[3]. Shunga asoslangan holda aytish zarurki, O'zbekiston mustaqil davlat sifatida prezidentlik respublikasi sifatida tan olingan. O'zbekistonda birinchi prezident saylovi 1991-yil 29-dekabrda o'tkazilgan va unda xalq irodasi birlamchi ahamiyat kasb etgan.

Markaziy Osiyolik mutafakkir Forobiy qarashlariga ko'ra, «davlat jamiyatning tayanchidir. U jamiyatning mukammaligi va mukammal emasligini belgilaydi. Mukammal shunday davlat vositasida qo'lga kiritiladiki, u ezgu an'analar, odamlar va yaxshi axloqni tarqata olsin va jamiyatda bu xislatlarni barqaror eta olsin. Bunday davlat bo'lmasa, fozila, ezgu xislatlar odamlarda uzoq saqlanmaydi va barqaror bo'lmaydi»[4]. Forobiy nazarda tutgan davlat, mustabidlikka emas, balki tiklanish va faoliyatida xalqning istak va irodasi bevosita rol o'ynaydigan davlatdir. Bu aslida, "hozirgi ma'nodagi demokratik boshqaruv tizimiga xos fikrlardir. Shuningdek, Forobiy "Ularning o'zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutlaq bo'lmaydi. Ular odamlar ichidan ko'tarilgan, sinalgan va olijanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo'ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o'z saylovchilarini to'la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmandan muhofaza qiladilar"[5] deb ilgari surgan qarashlari bilan davlat boshqaruvida demokratik prinsiplarni mustahkamlash bilan uzviy holda bog'liq bo'lgan axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni tizimlashgan holatga aylantirdi. Shuningdek, "Forobiy qarashlaridagi «hokimi mutlaq bo'lmasligi», «saylovchilar irodasi», «ozodlik» kabi fikrlari nafaqat o'sha davrda, balki bugunda ham insoniyat madaniyati noyob mahsuli hisoblangan

- demokratiyaning bosh g'oyasi bo'lib xizmat qiladi"[6].

Xususan, Amir Temur davlat ishlarida demokratik davlatning asosi sifatida qonun ustuvorligini mustahkamlashni ta'kidlagan. Jumladan, davlat ishlarini boshqarishda adolat mezoni asosida olib borilishi tartib-intizom orqali namoyon bo'lishini yozib qoldirgan. O'zbek olimlaridan A.Qodirovning yozishicha: "Amir Temur o'z saltanatini boshqarishi uchun kuchli davlat mahkamasini tashkil etib, unda ish olib borishning aniq tartib, intizomini o'rnatdi. Tartibni buzgan shaxs hech jazosiz qolmagan, har bir mansabdor shaxsning huquq va burchlari qat'iy, aniq belgilab qo'yilgan edi. Fuqarolarning haq-huquqlarini poymol qiluvchilar, o'g'rilar, qaroqchilar shafqatsiz jazolangan. O'z amalini suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, maishiy buzqlik kabi illatlar, ayniqsa, og'ir gunoh hisoblanib, bunday nomaqul ishlar bilan shug'ullangan shaxslar qattiq jazoga tortilgan"[7]. Bu esa fikrimizcha, demokratik huquqiy davlat boshqaruvini dastlabki amaliy tamoyillari o'sha davrlardan jamiyat hayotiga tadbiq etishga yordam berganligini aytish mumkin.

Adabiyotlar tahlilicha, Sohibqiron huquqiy demokratik davlatchilik tizimi sifatida muayyan qadriyatlar, amaliy tajribalar va qonuniyatlar asosida mustahkamlashga harakat qilgan. Shuningdek, demokratiyaga asoslangan jamiyatning shakllanish va mustahkamlashning Amir Temur davrigacha quydagi shartlari mavjud edi:

“Birinchisi, davlat o'z vazifasini bajarmog'i uchun eng avvalo siyosiy jihatdan mustaqil bo'lishi kerak.

Ikkinchisi, davlat va jamiyat yaxlitligi siyosiy jihatdan buzilmasligi lozim.

Uchinchisi, davlat va jamiyat muayyan bir qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilmog'i kerak.

To'rtinchisi, boshqaruvning turli tabaqalari, yo'nalishlari, sohalarini muvofiqlashtirib turuvchi ma'lum bir tizim shakllangan bo'lmog'i lozim.

Beshinchisi, jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvoli (taraqqiyoti) davlat diqqat markazida turmog'i lozim.

Oltinchisi, fan va madaniyat ravnaqi to'g'risida doimiy qayg'urish davlat ahamiyatiga molik qat'iy siyosat sifatida qaralmog'y lozim.

Yettinchi, har bir davr shart-sharoiti, tartibotlariga ko'ra davlat, jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarini tashqi dunyoda mavjud omillardan foydalangan holda hal etib borishi darkor.

Sakkizinchi, davlat tepasida turgan kuchlar o'tmish, zamona hamda kelajakni teran tafakkur, qat'iy iymon, g'oyada yuksak ma'naviyatparvarlik va millatparvarlik ila anglamog'i shart"[8].

Demokratik huquqiy davlat boshqaruvini shakllantirish va mustahkamlashning asosiy mezoni sifatida asosiy qomus hisoblanadigan konstitutsiyani alohida ko'rsatish mumkin. Zero, mamlakatda amal qiladigan asosiy qomus siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum asoslarini, fuqarolarning huquq va erkinlarini mustahkamlashda asos hisoblanadi. Shuningdek ushbu huquq va erkinliklarni himoya qilishda siyosiy partiyalar, ijtimoiy institutlar va boshqa bir qator davlat organlarining asosiy funksiyalaridan hisoblanadi. Ularning faoliyati o'z guruhlarining o'zgalarning manfaatlariga zid bo'lgan yoki ularni kamsitadigan manfaatlarini ro'yobga chiqarish zaruriyati bilan belgilanadi. Shu sababli partiyalar va harakatlar hokimiyat obro'siga tayanadi. Hokimiyatning aralashuvi ziddiyatlarni tartibga solish, manfaatlarni muvofiqlashtirishga ko'maklashadi. Xususan, partiyalar va harakatlarning asosiy vazifasi – xalq hokimiyati institutlariga izchil ta'sir ko'rsatishdir. O'z siyosati bilan ular hokimiyat tuzilmasini yaratishda ishtirok etadilar, ularni qo'llab-quvvatlaydilar yoki vayron qiladilar. Jamiyat rivojlanishining inqirozli davrlarida siyosatning asosiy vazifasi – hokimiyat uchun kurashish va uni turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida taqsimlashdan iborat. Shunday qilib, siyosat boshqaruvchilar va boshqariluvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqa shakli sifatida amal qiladi. Davlat va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar faoliyati huquq bilan, shuningdek, jamiyatda hukm suruvchi odatlar va an'analar bilan tartibga solinadi. Bu U.Abilov fikricha, «Jamiyatning optimistik ruhini shakllantiradi»[9].

Xulosa qilib aytish lozimki, demokratik huquqiy davlatning muhim omillaridan biri siyosatning ongli yoki stixiyali harakatlar sohasidir. U ijtimoiy guruhlar o'z manfaatlarini, hokimiyat esa o'z siyosiy vazifasini anglab yetishini nazarda tutadi. Siyosiy mafkura nazariy, dasturiy-siyosiy va empirik darajalardan

tarkib topadi. Xususan, empirik dapaja jamiyatning ayrim guruhlarini siyosiy dasturlarni qay darajada o'zlashtirganini tavsiflaydi. Shuningdek, ijtimoiy guruhlarining siyosiy psixologiyasi ommaning siyosiy xulq-atvorida onglilik va stixiyalilikning, oqilona va nooqilona harakatlarning o'zaro nisbati bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Туленов Ж. Мустақиллик ва миллий тикланиш. – Тошкент: Фан, 1992. – Б.32.
2. Мустақиллик: изоҳли илмий-оммабоп луғат. – Тошкент, 1998. – Б.41.
3. Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёт, 1996. – Б.34.
4. Эргашев ва бошқалар. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. - Т.: 2005.
5. 49 б.
6. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. /Масъул муҳаррир: ф.ф.д., проф. А.Қодиров. ~Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006. – Б. 21
7. Abilov U. Milliy g'oya va optimizm. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 43.
8. Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти. Ўқув қўлланма. /Масъул муҳаррир: ф.ф.д., проф. А.Қодиров. ~Т.: ТДЮИ нашриёти, 2006. – Б. 22
9. Abilov U. Milliy g'oya va optimizm. – Toshkent: Sharq, 2018. – B. 43.
10. Mamanov, J. A. (2018). Yoshlar ma'naviy madaniyatiga tahdid yoki messioneerlikning salbiy oqibatlari. O'zMU xabarnomasi, 169.
11. jamoliddin Abduraximovich, M. (2023, November). ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHDA GEOGRAFIK MUHITNING O 'RNI. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 11, pp. 158-166).

12. Mamanov, J. A. (2018). MA'NAVIY TARBIYA TAKOMILIDA SPORT VA AXLOKIY MADANIYATNI UYFUNLASHTIRISH MASALASI. Fan-Sportga, (3), 74-78.
13. Mamanov, J. A., & Xushvaqto'v, Z. R. (2022). MILLIY MENTALITET (MEXANIZMI) VOSITASIDA YOSHLAR MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOIYILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 1(6), 9-13.
14. Mamanov, J. A. (2020). Young people are increasing a spiritual culture place of national mentality. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 3203.
15. Mamanov, J., & Turg'unov, T. (2022). MILLIY MENTALITET ASOSIDA YOSHLAR MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING MILLIY VA UMUMINSONIY TAMOIYILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 1(7), 520-528.
16. Mamanov, J. A. (2023). YOSHLAR MADANIYATI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(13), 383-390.
17. Mamanov, J., & Turg'unov, T. (2023). MAMLAKATIMIZ AHOLISI O'RTASIDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI QAROR TOPTIRISH–BUYUK KELAJAK ASOSI. Educational Research in Universal Sciences, 2(3), 311-314.